


Xorazm viloyatida 2018-yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi.


Mamlakatimizda 2018-yil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirilishi bilan bir qatorda sanoat sohasida ham Davlatimiz tomonidan mavjud korxonalar quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, yangidan tashkil etilayotgan korxonalariga imtiyozlar yaratib berish natijasida Xorazm viloyatida 2018-yilning yanvar-mart oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1273,9 mlrd.so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 120,2 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi 2018 yil yanvar-mart holatiga (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)

2017 yil yanvar- mart



2018 yil yanvar- mart




- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi ko'proq qayta ishlash sanoatiga to'g'ri kelib, uning ulushi 94,3 foizni tashkil etdi (2017-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 119,6 foiz). Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 0,004 foizni (o'sish sur'ati 107,8 foiz), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 5,1 foizni (o'sish sur'ati 127,3 foiz), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish ulushi 0,6 foizni (o'sish sur'ati 164,4 foiz) tashkil qiladi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida o'sish darajasi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani (2017-yil yanvar-mart oyilarga nisbatan 144,1 foiz), Shovot tumani (112,8 foiz), Urganch shahri (112,1 foiz), Bog'ot tumani (110,4 foiz) va Gurlan tumani (109,9)ga o'sganini ko'rish mumkin.

2018-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish o'sish sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan foizda)




2018-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi to'g'risida (mlrd.so'mda)



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida yuqori bo'lgan Xazorasp tumani, Urganch shahri, Xonqa va Bog'ot tumanlari xissasiga to'g'ri keladi.

2018-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani 40,0 foiz, Urganch shahri 23,3 foiz, Xonqa 7,1 foiz, Bog'ot 6,0 foiz, va Shovot tumani 4,6 foizni tashkil qiladi.

2018-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish.

Iqtisodiy faoliyat turlari	<i>mlrd.so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	1273,9	120,2
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	0,1	107,8
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,1	107,8
Qayta ishlash faoliyati	1200,8	119,6
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	234,0	101,3
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	36,9	127,3
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	324,7	104,8
Kiyim ishlab chiqarish	19,6	96,3
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	1,2	102,7

Iqtisodiy faoliyat turlari	<i>mlrd.so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
Yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materiallari, ishlab chiqarish	1,0	107,5
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	2,8	105,2
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,2	107,7
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0	0,0
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	2,3	105,0
Asosiy farmasevtika	1,1	102,8
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	4,9	115,8
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	36,6	108,5
Metallurgiya sanoati	1,7	107,2
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	28,0	132,8
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,2	107,7
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	4,6	106,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	24,3	107,6
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	444,5	153,9
Mebel ishlab chiqarish	4,9	109,3
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	23,8	93,4
Mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	3,6	94,1
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	64,9	127,3
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	8,2	164,4
Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish	742,9	125,1
<i>shu jumladan:</i>		
oziq-ovqat tovarlari	199,5	108,2
nooziq-ovqat tovarlari	534,8	133,4


2018-yil yanvar-mart oylaridda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.
(mlrd. so'm)




Viloyatda 417,6 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2017-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 125,1 foizni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi
(jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)

2017 yanvar-mart




2018 yanvar-mart




- Nooziq-ovqat mahsulotlari
- Oziq-ovqat mahsulotlari

Shahar va tumanlarda 199,5 mlrd.so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 534,8 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari (2017-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan mos ravishda 108,2 foiz va 133,4 foiz) ishlab chiqarildi.


**2018-yil yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.
(foizda)**



2018-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)



2018-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
“Sanoat statistikasi” bo’limi
Nashr uchun ma’sul: K.Kuryazov
Aloqa telefoni (0362) 224-64-99